

Davronov Dilshodbek Ismoilovich  
Buxoro davlat universiteti  
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi

## **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA BADIY MATNGA OID TUSHUNCHALARINI MEDIATA’LIM ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiy matnga oid tushunchalarini mediata’lim asosida shakllantirish usullari, zamonaviy ta’lim texnologiyaning ta’lim jarayonida qo‘llash borasida ma’lumot keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy ta’lim, ravon nutq, psixologik-irodaviy, didaktik imkoniyati, mediamaxabar.

### **МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПОНЯТИЙ О ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ**

*Аннотация.* В данной статье представлена информатсия о методах формирования понятий о художественном тексте на уроках чтения начальных классов на основе медиаобразования, о применении современных образовательных технологий в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** современное образование, беглая речь, волевая, дидактическая способность психолога, медиасообщество.

### **METHODOLOGY FOR THE FORMATION OF CONCEPTS RELATED TO THE ARTISTIC TEXT IN ELEMENTARY SCHOOL READING LESSONS ON THE BASIS OF MEDIOCRE EDUCATION**

*Abstract.* This article provides information on the methods of forming concepts about a literary text in primary school reading lessons based on media education, on the application of modern educational technologies in the educational process.

**Keywords:** modern training, fluent nutq, psychologist-volitional, didactic opportunity, mediaksabar.

**Kirish.** Boshlang‘ich sinf “O‘qish savodxonligi” darsliklarida matnga oid rasmlar asosida kichik hikoya tuzish yoki yozish o‘quvchilar ijodiy fantaziyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘quvchilar nafaqat rasmida ko‘rganlarini, balki ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqeа-hodisalar haqida ham aytib beradi. O‘qituvchining mohirlik bilan qo‘ygan savollari yordamida o‘quvchilar yangi hodisalar, tabiat manzaralarini tasavvur qilishlari mumkin. Biroq bu ish nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchi uchun ham murakkab sanaladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning fantaziyasini diqqat bilan tinglaydi, ular asosli bo‘lishi, haqiqatga mos kelishini kuzatib boradi. Xatolarni ustalik bilan to‘g‘rilab borish, nima uchun shunday bo‘lishi yoki bo‘lmasligini tushuntirish, hikoyachi nutqini to‘g‘ri yo‘naltirib turish o‘quvchilarga ilhom va ishonch bag‘ishlaydi.

Zamonaviy ta’lim o‘quvchilarda bilishga, o‘quv fanini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni, motivatsiyani oshirish, ularda o‘quv-bilish faolligini rivojlantirish borasida katta imkoniyatlarga egaligi sababli o‘qitish jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish zaruriyati mavjud ekanligini ko‘rsatmoqda. Lug‘aviy jihatdan “texnologiya” tushunchasi (yun. “techne” – mahorat, san’at, “logos” – tushuncha, ta’limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi, “ta’lim texnologiyasi” atamasi

esa (ingl. “an educational technology”) – ta’lim (o‘qitish) jarayonining yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi ma’nolarini anglatadi. Nazariy jihatdan esa “ta’lim texnologiyasi” tushunchasi “ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish” [60; 8-b.]ni ifodalaydi.

**Metodlar.** Tadqiqotni olib borish jarayonida “Ravon nutq” ta’lim texnologiyasi ishlab chiqildi va asoslandi. Texnologiya ifodali o‘qish, savol-javob, mashq, lug‘at bilan ishlash, qayta hikoya qilish, mustaqil ishlash, test metodlari asosida shakllantirildi. Pedagogik faoliyatda ushbu metod yordamida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqini o‘stirish jarayonini 1-sinf “O‘qish kitobi”da berilgan “Ona yer” [10; 90-91-b.] matni misolida ko‘rish mumkin.

Texnologiya nomi: Ravon nutq.

Texnologianing maqsadi: boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ifodali o‘qish, savol-javob, mashq, lug‘at bilan ishlash, qayta hikoya qilish, mustaqil ishlash, test metodlari yaxlitligi asosida matn ustida ishlash orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish.

Kutilayotgan natija: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ifodali o‘qish, lug‘at bilan ishlash, qayta hikoya qilish, matn bilan mustaqil ishslash malakalarini hosil qilish.

Texnologiyani qo‘llash orqali hal qilinadigan vazifalar:

1. O‘quvchilarning matn bilan ishlash (ifodali o‘qish, lug‘at bilan ishlash, qayta hikoya qilish, matn bilan mustaqil ishlash) ko‘nikmalarini mustahkamlash.

2. Evolyusion rivojlanish asosida o‘quvchilarning matn bilan ishlash (ifodali o‘qish, lug‘at bilan ishlash, qayta hikoya qilish, matn bilan mustaqil ishlash) ko‘nikmalarining malakaga aylanishini ta’minalash.

Texnologiya shakllari: dars, suhbat, rolli o‘yin, musobaqa.

Texnologiya metodlari: ifodali o‘qish, savol-javob, mashq, lug‘at bilan ishlash, qayta hikoya qilish, mustaqil ishlash, test metodlari.

1-bosqich. Ifodali o‘qish metodi yordamida nutq o‘stirish.

1. *Matnni ifodali o‘qing.*

Ona yer

Ibrohim Rahim

Maktabdan o‘z uyiga kelguncha Anvarjon duch kelgan jami narsalarni sinchiklab kuzatib keldi. So‘ng ayasiga murojaat qildi.

- Ayajon, ho, ayajon!
- Labbay, qo‘zichog‘im!
- Yer shuncha narsani bitta o‘zi ko‘taradimi?
- Bitta o‘zi ko‘taradi.
- Uylar... odamlar... tramvaylar... hammasini yer ko‘tarib turibdi. Beli og‘rimaydimi?
- Og‘rimaydi.
- Charchamaydimi?

– Charchamaydi. Bundan tashqari yer meva-cheva beradi. Yeydigan nonimiz ham mana shu yerda bitadi. Shuning uchun biz uni ona yer deymiz.

Anvarjon ayasining shu gapidan keyin yerga yanada mehri ortganday, unga mehribon boqadigan, yerni aziz deb biladigan, jahli chiqqanda yernidepsimaydigan bo‘ldi.

2. *Matnni rollarga bo‘lib o‘qing.*

Ona yer

1-o‘quvchi (muallif): – Maktabdan o‘z uyiga kelguncha Anvarjon duch kelgan jami narsalarni sinchiklab kuzatib keldi. So‘ng ayasiga murojaat qildi.

2-o‘quvchi (Anvar): – Ayajon, ho, ayajon!

3-o‘quvchi (Ayasi): – Labbay, qo‘zichog‘im!

Anvar: – Yer shuncha narsani bitta o‘zi ko‘taradimi?

Ayasi: – Bitta o‘zi ko‘taradi.

Anvar: – Uylar... odamlar... tramvaylar... hammasini yer ko'tarib turibdi. Beli og'rimaydimi?

Ayasi: – Og'rimaydi.

Anvar: – Charchamaydimi?

Ayasi: – Charchamaydi. Bundan tashqari yer meva-cheva beradi. Yeydigan nonimiz ham mana shu yerda bitadi. Shuning uchun biz uni ona yer deymiz.

Muallif: – Anvarjon ayasining shu gapidan keyin yerga yanada mehri ortganday, unga mehribon boqadigan, yerni aziz deb biladigan, jahli chiqqanda yernidepsimaydigan bo'ldi.

### *3. Matndagi qahramonlardan birining nomini o'zgartirib o'qing.*

Ona yer

Maktabdan o'z uyiga kelguncha Sodiqjon duch kelgan jami narsalarni sinchiklab kuzatib keldi. So'ng ayasiga murojaat qildi.

– Ayajon, ho, ayajon!

– Labbay, qo'zichog'im!

– Yer shuncha narsani bitta o'zi ko'taradimi?

– Bitta o'zi ko'taradi.

– Uylar... odamlar... tramvaylar... hammasini yer ko'tarib turibdi. Beli og'rimaydimi?

– Og'rimaydi.

– Charchamaydimi?

– Charchamaydi. Bundan tashqari yer meva-cheva beradi. Yeydigan nonimiz ham mana shu yerda bitadi. Shuning uchun biz uni ona yer deymiz.

Sodiqjon ayasining shu gapidan keyin yerga yanada mehri ortganday, unga mehribon boqadigan, yerni aziz deb biladigan, jahli chiqqanda yernidepsimaydigan bo'ldi.

*4. Matnning muayyan qismini tanlab o'qing.* Bunda o'qituvchi topshirig'iga ko'ra matnning ma'lum qismlari tanlab o'qiladi. Masalan, "Anvarning o'zi uchun chiqargan xulosasi qayd etilgan qismni topib o'qing" topshirig'i berilgach, o'quvchilar quyidagi qismni qayta o'qiysi:

"Anvarjon ayasining shu gapidan keyin yerga yanada mehri ortganday, unga mehribon boqadigan, yerni aziz deb biladigan, jahli chiqqanda yernidepsimaydigan bo'ldi".

2-bosqich. Savol-javob va mashq metodi yordamida nutq o'stirish.

#### *1. Matndagi voqealar tizimiga oid savol va topshiriqlar:*

– Anvarjon maktabdan o'z uyiga kelguncha nimalarni sinchiklab kuzatdi?

– Anvarjon ayasidan nimalarni so'radi?

– Anvarjon ayasining gaplaridan so'ng qanday xulosa chiqardi?

#### *2. Izlanishni talab qiluvchi savol va topshiriqlar:*

– Anvarjon Yerdagi nimalarni sanab ko'rsatgan?

– Ayasi Anvarga Yer bizga yana nimalar berishini aytgan?

#### *3. Matndagi asosiy g'oyani aniqlashga qaratilgan savol va topshiriqlar:*

– Ushbu hikoyadan nimalarni bilib oldingiz?

– Ona yerimizni nima uchun asrab-avaylashimiz kerak ekan?

#### *4. Lug'at ishiga oid savol va topshiriqlar:*

– Matndagi "sinchiklab" so'zini qanday tushunasiz?

– "Aya" so'zining ma'nodoshlarini aytning.

– Anvarning ayasi "meva-cheva" deganda nimani nazarda tutgan deb o'ylaysiz?

– Matndagi "depsimaydigan" so'zining ma'nosini tushuntiring.

#### *5. Matndagi ma'lumotlarga tayanib, hikoyani davom ettirish bilan bog'liq savol-topshiriqlar:*

– Anvarning o'rnida siz bo'lganingizda ayangizga yana qanday savollar berardingiz?

– Anvarning ayasi bergen javobni yana qanday ma'lumotlar bilan to'ldirish mumkin?

#### *6. Olingan bilimlarni umumlashtirishga oid savol-topshiriqlar:*

– Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

– Nima uchun biz yerni "Ona yer" der ekanmiz? Fikringizni izohlang.

3-bosqich. Qayta hikoya qilish metodi yordamida nutq o'stirish.

1. *Matn mazmuniga yaqinlashtirib qayta hikoya qilish.*

2. *Matn mazmunini kengaytirib (yoki qisqartirib) qayta hikoya qilish:*

– Kuz. Hamma yoqda ish qizg'in. Anvarjon maktabdan uyg'a qaytayotganda hamma narsalarni sinchiklab kuzatib keldi. So'ngra onasidan: "Hamma narsani yer ko'tarib tursa, uning beli og'rib qolmaydimi?" – deb so'radi. Onasi yer hamma narsani bemalol ko'tarib turishini, hatto bizga meva-cheva va non ham berishini aytdi. Shuning uchun biz uni "ona yer" deb atashimizni tushuntirdi. Anvarjon ayasining gaplaridan yerga yanada mehribon bo'lish kerakligini bildi va jahli chiqqanda ham unidepsimaydigan bo'ldi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Boshlang'ich sinflarda og'zaki, yozma, tashqi va ichki nutq turlarining o'ziga xos xususiyatlarini, o'quvchilarning psixologik-irodaviy va axloqiy jihatlarini hisobga olish nutq o'stirish jarayonining muvaffaqiyatli kechishini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishslash orqali nutq o'stirishda o'qish va ona tili darslari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikdan unumli foydalanish kutilgan natijaning qo'lga kiritilishini ta'minlaydi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

9. Abdullayeva Q., Shodmonova Sh., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari. – T.: O'qituvchi, 2008. – 128 b.
10. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped.fan.nomz. ... diss. – T.: 2002. – 276 b.
11. Aminova F. Muloqot matni yaratish ko'nikmalarini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2006. – 100 b.
12. Bekniyazova N. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarga matn yaratishni o'rgatish metodikasi (ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 160 b.
13. Boqiyeva H., Ahmedova N., Azizova N., Nosirova D., Teshaboyeva B., Ismailova U., Teshaboyeva B., Egamberdiyeva B. Savodga o'rgatish darslari 1 (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). – T.: Extremum-press, 2014. – 120 b.
14. Djuraev R.X., Tolipov O'.Q., Safarova R.G', To'raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: Fan, 2008. – 198 b.
15. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – T.: Fan, 2007. – 144 b.
16. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2015. – 150 b.
17. Matchanov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Ped. fan. dokt. ...dis. – T.: TDPU, 1998. – 300 b.
18. Matchonov S., G'ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – T.: Yangiyul poligraph service, 2008. – 224 b.